

Xalqaro Nordik universiteti
Mamajonova Xurshida


Xalqaro Nordik universiteti Klassik psixologiyada shaxs tuzulishini o'rganishning turlicha yondashuvlari. Shaxsni o'rganishning o'ziga xos strategik yo'nalishlari

1. Shaxsni o`rganishning Ijtimoiy psixologiya uchun o`ziga xosligi
2. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari
3. Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik harakteristikasi
4. Shaxs va guruh muammosi

Shaxsni o`rganishning Ijtimoiy psixologiya uchun o`ziga xosligi

- Muloqot jarayonining ham, guruhiy jarayonlarning ham egasi-sub`ekti hamda ob`ekti alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham Ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o`rgandiki, uni usha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuktai nazardan tekshiradi. Ma`lumki, shaxs muammosi umumiylar psixologiyada ham, yesh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo`limlarida ham o`rganiladi. Har bir bo`lim yoki tarmoq uni o`z mavzui va vazifalari nuktai nazaridan shaxsga taalluqli bo`lgan muammolarni yeritadi. Masalan, umumiylar psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning maxsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblansa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning ob`ekti deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yendoshishning o`ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo`ladigan turli shakldagi o`zaro munosabatlarning okibati sifatida qaraladi. Ya`ni Ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a`zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga buysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta`sirlari uning ongida qanday aks topishini o`rganadi.



Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari

- ◻ Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman angangan motivlariga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabietdan ainan bir guruh asarlar guruhi yoki shu adib yokishini tushunmaidi Usha guruhdan yangi bir kitob kitob qo`lga kirganda u albatta yokishi kerak degan tasavvurda bo`ladi shu manoda olib qaralganda ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosatbatlarga o`xshaydi. Lekin aslida uning tabiatи juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma`no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o`z ifodasini topadi. Ya`ni ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy ob`ektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu ob`ektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma`lum tarzda idrok qilishga tayorgarlik holatidir.

Ijtimoiy ustanovka muammosi Garbda, ayniqsa, Amerika Kushma SHTatlarida har taraflama chukur o`rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi hayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlariga bogligini urginib, shaxs xulq atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. (U. Tomas, F. Znanetskiy, G. Olport, M. Smit, K. Xovland, Laper, D. Kats, N. Rokich va boshqalar) ular ijtimoiy ustanovkani bir so`z bilan - "attyud" so`zi bilan ifodalaydilar. 1942 yildaek M. Smit attityudning uch komponentli strukturasini ishlab chiqqan



Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik harakteristikasi

Psixologlarning fikricha (G. Asmolov, P. SHixerev, V. A. YAdov, P. NadiraShvilli va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarni o`zgartirish uchun shu ustanovkalarning sababi bo`lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o`zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo`ladi.

Shunday qilib, shaxs sotsiologiyasi jarayonida turli ustanovkalarni ruebga chiqarish sharoitida faollik kursatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy psixologik sifatlarda ko`ramiz. Ya`ni, aktiv birgalikdagi faoliyat, o`zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy psixologik fazilatlari shakllanadi.

Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo`ladigan hamda muloqotda ko`rinadigan sifatlar guruhida bo`linadi. Masalan, tashki muxit bilan faol munosabat perceptiv ximoya sifatlari, ya`ni o`ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo`lgan ijtimoiy ta`sirlardan ximoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatlarni ba`zi mualliflar perceptiv qobiliyatlar (V.A. Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta`sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A. Bodalev), "kuzatuvchanlik".



■ Biz yo`qorida shaxs tomonidan qanday ijtimoiy ta`sirlar kabo`l qilinadi-yu, u bu ta`sirlarni o`zining uestanovkalari orqali namyon etib, shaxs siyatlarda mustaxkamlashini kurib chikdik. Lekin har bir shaxsning individual, qaytarilmas mavjudot ekanligini nazarda tutsak, uning ta`sir o`tkazuvchi konkret guruhlarining rolini alohida aytmay bo`lmaydi. G. M. Andreevaning fikricha, bu muammo quyidagicha qo`yilishi lozim:"Shaxsda shakllangan ijtimoiy - psixologik fazilatlarning qanchalik sotsializatsiya jarayoni ta`minlangan va real faoliyati kechgan guruhlarning "sifatiga" bog`liqligi muammosi. Masalaning qo`yilishi xakikatdan ham to`g`ri, chunki konkret vaziyatlardagi guruhlarni nazarga olmagan takdirimizda ham, biz qanday tipli guruhning shaxs kamolotiga ijobiy ta`sir ko`rsatishimizni bilishimiz kerak, masalan, ziddiyatli guruh shaxsda to`g`ri faol maqsadlar shakllantiradimi yoki ziddiyatsiz, har qanday sharoitda ham kelishuvchan guruhmi? yoki ko`p yillar mobaynida uzoq muloqotda bo`lgan kishilar guruhi ma`qo`lmi yoki turli-tuman yangi guruhlar kerakmi?

Umumiy psixologiyada va psixologiyaning boshqa tarmoqlariga o`tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida asosan qanday shaxsni "ijobiy" deb atash mumkin, degan savolga qisman javob topilgan. Masalan, A. V. Petrovskiy ana shunday sifatlarning bir yarim mingga yaqinini aniqlagan, lekin usha sifatlarning shakllanishiga zamin bo`ladigan guruhlar haqida shu paytgacha fanda aniq ma`lumotlar yo`q. Anigi shuki, shaxsni tushunish uchun, unga holis baho berish uning faqatgina yaqin kishilari guruhini emas, balki u muloqotda bo`lgan va bo`layotgan guruhlar sistemasi va ularning sifatini o`rganmoq lozim.

